

**AHOLINI IJTIMOY HIMOYALASHDA MAHALLA VAKOLATLARINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

**Meyliyeva Kibriyo
Abdullayeva Marhabo
Xushvakov Shoxboz**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ijtimoiy ish
ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi.*

*Ilmiy rahbar: **Sherov Ma'ruf Boltaevich***

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti

Annotasiya: Maqolada aholini ijtimoiy himoyalashda maxallaning o'ri va roli ko'rsatilgan. Mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada btakomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash, mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish, va xususan jamoatchilik nazorati kabi masalalarga aloxida e'tibor karatilgan.

Kalif so'zlar: *ijtimoiy himoya, demokratik islohatlar, mahalla vakolatlari, jamoatchilik nazorat, davlat va nodavlat tashkilotlar.*

**ВОПРОСЫ УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПОЛНОМАЧИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО
КОНТРОЛЯ МАХАЛЛИ ПРИ СОЦИАЛЬНОЙ ТОЧНО НАПРАВЛЕННОЙ ЗАЩИТЕ
НАСЕЛЕНИЯ**

Аннотация. В статье раскрываются вопросы, посвященные роли органов самоуправления граждан социальной защите населения. Особо внимание уделяется вопросам совершенствования организационных основ махали, расширение ей функций, содействие махалли в установление тесного сотрудничества с исполнительной властью, социальная защита населения со стороны махали. Особое внимание уделяется общественному контролю нал органами государственной властью.

Ключевые слова: социальная защита населения, демократические реформы, полномочия махали, общественной контроль, общественные и государственные организации.

**QUESTIONS IMPROVEMENTS THE SOCIETY CONTROL MAHALLA PRECISELY
AIMED A SOTSIALY PROTECT THE POPULATION**

Resume: The article describes the issues on the role of self-governing bodies of social protection of the population. Particular attention is paid to the improvement of the organizational bases waving, expanding its functions, promote Mahalla in close co-operation with the executive branch, the social protection of the population from the mahali. Attention to public scrutiny cash authorities.

Keywords: social welfare, democratic reforms, waved authority, social control, nongovernmental and government organizations.

Mamlakatimizda jamiyatni yanada demokratlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash borasida amalga oshirib kelinayotgan keng ko'lamli islohotlar bugungi kunda yangicha mazmun bilan boyitildi.

Tarixan ming yillar davomida tarkib topgan mahalla yaxshi qo'shnichilikni, hurmat va insonparvarlikni tarbiyalashda, ijtimoiy himoya masalalarini hal etishda muhim rol o'ynab kelgan. Aholi bandligini ta'minlash, kam ta'minlangan va boquvchisini yo'qotgan oilalar, yordamga muhtoj yolg'iz qariyalar, imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy himoya qilish masalasi ham aynan mahallalarda o'z yechimini topadi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi qariyb o'n mingta fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining taraqqiyot yo'li va uning mustahkam huquqiy asoslarini kuzatar ekanmiz, respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar - kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari asosiy prinsipining bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganining guvohi bo'lamiz. Xususan, istiqolning dastlabki yillarida mahallaga ikki vazifani amalga oshirish bo'yicha huquqiy vakolat berilgan bo'lsa, bugungi kunda davlat hokimiyatining mahalliy organlaridan 30 dan ortiq ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatli vazifalar ular vakolatiga berildi.

Mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash, mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish hamda uning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarni yanada kengaytirish va mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha talablar qo'yildi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan natijalarga erishishda jamoatchilik nazoratini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Jamoatchilik nazoratini o'rnatishning zarurligi eng avvalo, korrupsiya,

ta'magirlik, mahalliychilik, o'z vazifasini suiste'mol qilish, firibgarlik, odamlar ongini har xil unsurlar bilan zaharlash kabi tahdidlarning oldini olish hamda ularga barham berishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Darhaqiqat, fuqarolik jamiyatida kishilarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq bo'lmasligi, davlat organlarida ishlayotgan har bir rahbar xodimning o'z faoliyatining jamoatchilik nazorati ostida ekanini chuqur his etishi jamiyat rivojida muhim ahamiyatga ega.

Jamoatchilik nazorati jamiyatda ijtimoiy adolat barqaror bo'lishi uchun shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida tenglik, mas'uliyat va javobgarlik bo'lishi uchun xizmat qiladigan omildir. U insonning huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanishi, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor bo'lishini ta'minlaydi, jamoatchilik nazoratining mavjudligi siyosiy hokimiyat tom ma'noda xalq qo'lida bo'lishining ko'rsatkichi hisoblanadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyatida davlat va hukumatning ham, nodavlat va jamoat tashkilotlarning ham alohida vazifalari bo'ladiki, ular bir-birini to'ldirib, rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligi-hayotiyiligini ta'minlaydi. O'zbekistonda mahalla timsolida o'zini o'zi boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotning noyob shakli azaldan mavjud bo'lgan. Mahalla fuqarolarning intilishlari va sa'y-harakatlari tufayli, muayyan milliy, ma'naviy va axloqiy xarakterdagi tartib-qoidalarga rioya qilish, to'y-ma'rakalar, yaxshi-yomon kunlarni hamjihatlikda o'tkazish, ahillikni ta'minlash kabilarga xizmat qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy, qadimiy hududiy jamoa bo'lib, demokratik boshqaruvning noyob xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi[4].

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashda Konsepsiyada ilgari surilgan «Jamoatchilik nazorati to'g'risida», «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi qonunlarning qabul qilinishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta, mahallalar faoliyatining davlat tomonidan kafolatlanishi islohotlarni yanada chuqurlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi hamda fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan o'zaro hamkorligini mustaxkamlashga, jamoatchilik nazoratining yanada kuchayishiga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda jamoatchilik nazorati tizimi elementlari harakatga kelishi uchun boshlang'ich ijtimoiy institut bo'lgan mahallalarda jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi..

Prezidentimiz davlat nazorat funksiyalariga nisbatan jamoatchilik nazorati afzal va muhim ekaniga to'xtalib, shunday deydi: «Shuni unutmaylikki, biz davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak nazorat bilan shug'ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha ko'paytirsak, amaldorlarning zo'ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan, uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari ustidan ham jamoat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo'l yo'q».

Aholi bandligini ta'minlashda ishlab chiqarish korxonalarini bilan kasanachilik aloqalarini tashkil etish orqali oilalar daromad manbaining ko'payishida, aholining ish bilan bandlik darajasini oshirishda ham mahallalar tomonidan amalga oshirilayotgan jamoatchilik nazorati muhim omil bo'lib xizmat qilayotir.

Mamlakatimizda aholini yordamga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda ijtimoiy himoyalashda mahalla ijtimoiy instituti faoliyatini takomillashtirish va rag'batlantirish davr talabiga mos vazifalardan biri ekanligi quyidagi xulosalarni bildirishga asos bo'ladi:

Birinchidan, tizim faoliyati mamlakatimizdagi demokratik jarayonlarga xos bo'lgan «kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» konsepsiyasi tamoyillariga muvofiqligi bilan ajralib turadi.

Ikkinchidan, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashning mahalla tizimi «filtrlash» vazifasini o'taydi. Ya'ni, aholi turmush darajasi haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lgan holda, ijtimoiy yordamga muhtoj kishilarning arizalari o'rganilib, haqiqatdan yordamga muhtojlar qamrab olinadi.

Uchinchidan, mahalla raislari va faollari mahalla fuqarolari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lgani holda muhtoj oilalarga moddiy yordamni rasmiy tekshirishlarsiz tayinlashi va to'lashi mumkinligi bilan ijtimoiy adolat tamoyillarini ro'yobga chiqaradi.

To'rtinchidan, tizim muhtoj oilalarga davlat madadini yetkazib qolmasdan, bunday oilalarni kam ta'minlanganlik darajasidan chiqishga ko'maklashmoqda.

Beshinchidan, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning strategik maqsadlaridan kelib chiqib, davlatning aholini ijtimoiy himoyalashga ajratayotgan mablag'laridan o'z vaqtida unumli va oqilona foydalanilishi ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlarini ishlab chiqadi.

Oltinchidan, aholini muhtoj qatlamlarini ijtimoiy yordam bilan ta'minlashda mahalla fuqarolari yig'inlari faqat davlat byudjetidan

ajratilayotgan mablag' bilan cheklanib qolmasdan, fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari va boshqa manbalardan tushayotgan ixtiyoriy mablag'larni ham jalb qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Yettinchidan, mahallalardagi aholini yordamga muhtoj oilalarini hamda fuqarolarni ijtimoiy yordamning turli shakllarini olishga bo'lgan da'vogarligi jarayoni ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan xoli etilgan va soddalashtirilgan tarzda amalga oshirilmoqda. Ushbu holat esa aholining mahallalarga bo'lgan ishonchini oshirmoqda.

Sakkizinchidan, mahallada jamoatchilik nazoratining kuchliligi mahalla raislar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan mablag'ni suiste'mol qilinishi holatlarining oldini olishga yordam bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev jamoatchilik nazoratining ahamiyati, uni yanada samarali tashkil etish ko'p jihatdan fuqarolik jamiyati institutlariga bog'liq ekanligi, buning uchun esa ana shu tuzilmalarning mustaqilligini amalda ta'minlash, ularning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berish hamda faolligini oshirishga ko'maklashish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashning tashkiliy va huquqiy mexanizmlarini to'la ishlab chiqish o'ta dolzarb masala ekanligiga e'tibor qaratar ekan, jumladan: "qonunlar ijrosini ta'minlash, mamlakatda qabul qilingan va amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarni hayotga joriy qilishda davlat hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamoatchilik nazoratining jamiyatda ijtimoiy adolatning qaror topishi, shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida muvozanat, tenglik, o'zaro mas'uliyat va javobgarlikka xizmat qiluvchi asosiy omil ekanidan dalolatdir.

Aholining mamlakatimiz ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtiroki ko'lamini yanada kengaytirish, har bir fuqaroning siyosiy faolligini oshirish masalalari fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar oldiga salmoqli vazifalar qo'yimoqda.

Bugungi kunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga aholini ish bilan ta'minlash, iste'mol bozorini to'ldirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, odamlarning moddiy farovonligini oshirish va aholini kuchli ijtimoiy muhofaza qilish kabi muhim vazifalar qo'yilgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan vazifalarni bajarish borasida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan natijalarga erishishda jamoatchilik nazoratini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Jamoatchilik nazorati jamiyatda ijtimoiy adolat barqaror bo'lishi uchun shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida tenglik, mas'uliyat va javobgarlik

bo'lishi uchun xizmat qiladigan omildir. U insonning huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanishi, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor bo'lishini ta'minlaydi, jamoatchilik nazoratining mavjudligi siyosiy hokimiyat tom ma'noda xalq qo'lida bo'lishining ko'rsatkichi hisoblanadi.

Jamoatchilik nazoratini tashkil etishda, avvalo, jamoatchilik vakillarining siyosiy-huquqiy va ijtimoiy saviyasini o'stirish kerak. Har bir fuqaro, har bir inson o'z haq-huquqini yaxshi bilishi va uni himoya qila olishi kerak.

Umuman, jamoatchilik nazorati bugungi kunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan u yoki bu qonun talablarining fuqarolar yig'ini hududida ijrosini jamoatchilik guruhlarini tuzib o'rganish, natijalari bo'yicha tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlari hisobotlarini eshitish orqali aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rish tartibida yoki mahalliy davlat organlari faoliyatiga ko'maklashish orqali ham amalga oshirib kelinmoqda.

Aholini aniq yo'naltirilgan tarzda ijtimoiy himoyalashda mahallaning jamoatchilik nazorati vakolatini takomillashtirish uchun qo'yidagi taklif va mulohazalarimizni keltirib o'tamiz:

Birinchidan, mamlakatimizda joriy etilgan aholini yordamga muhtoj toifalarini ijtimoiy himoyalashning mahalla tizimi o'ziga xos «o'zbek modeli» sifatida talqin qilinayotganligini ko'rsatmoqda.

Ikkinchidan, aholini yordamga muhtoj toifalarini ijtimoiy madad bilan ta'minlashda mahalla tizimining noyobligi shundaki, u muhtoj qatlamlarni aniqlash va ularga yordamni taqsimlash qarorlarini qabul qilishda yozilgan qoidalar va erkin taqsimlash (mahalliy ko'rsatkichlar)ni o'zida mujassamlashtiradi.

Uchinchidan, bu yerda aholini yordamga muhtoj toifalariga beriladigan ijtimoiy yordam shakllarini aniq manziliga yetib borishi amalga oshadi. Sababi, o'zlarini moddiy yordamga muhtoj deb hisoblovchi oilalar mahalla fuqarolari yig'inlariga rasmiy ariza bilan murojaat qiladilar. Arizalarning ochiq muhokama qilinishi nazorat komissiyasiga oila tomonidan qalbaki yoki noto'g'ri axborot yetkazilishini tartibga soladi. Shuningdek, ariza bilan murojaat qilmagan, ammo haqiqatdan muhtoj bo'lgan oilalar mahalla fuqarolari kengashi tomonidan moddiy ta'minotga tavsiya qilinishi mumkin.

To'rtinchidan, mahalladagi aholini yordamga muhtoj toifalarini aniqlashda «filtrlash» amalga oshadi va davlat byudjeti mablag'larining noqonuniy o'zlashtirilishini oldi olinadi.

Beshinchidan, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilayotgan aholini yordamga muhtoj toifalarini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi mexanizmlarini takomillashtirish natijasida aholini yordamga muhtoj qatlamlarini

ijtimoiy muhofazalash bilan bir qatorda, ularning mavjud ijtimoiy-iqtisodiy nochor holatidan chiqishiga ko'maklashadi.

Oltinchidan, mahallaning aholini yordamga muhtoj toifalarini qo'llab-quvvatlashdek muhim vazifasi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatilishi natijasida mahalla raislari tomonidan muhtoj qatlamlarga madadni tayinlash va to'lash jarayonida suiste'molliklarga yo'l qo'yilishini oldini oladi.

Yettinchidan, mamlakatimizning bir qator oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan ijtimoiy ish yo'nalishi mutaxassislari tayyorlanayotganini hisobga olib mahallalarda "ijtimoiy ish xodimi" shtatini tashkil etish orqali aholini yordamga muhtoj qatlamlariga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordam shakllarini aniq manzilga yetib borishi ta'minlanadi. Mahalla tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatni yangi-yuqori darajaga ko'tarishga to'sqinlik qilayotgan muammolardan biri ijtimoiy xodim kasbi bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislarning yetarli emasligidir. Bu kasb bo'yicha oliy yoki o'rta-maxsus o'quv yurtlarida ixtisoslik olganlar soni sohada band bo'lganlar umumiy miqdorining bir foizini ham tashkil qilmaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mamlakatimizda aholini yordamga muhtoj toifalarini manzilli ijtimoiy muhofazalash tizimini takomillashtirish mahalla tizimining samaradorligini to'g'ri baholagan holda vakolatlari doirasi yana ham kengaytirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.